

SHARQSHUNOSIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

3

2024

ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096



SHARQSHUNOSLIK ВОСТОКОВЕДЕНИЕ ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

№ 3, 2024



Jurnal O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro'yxatidan
qayta o'tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – ISSN 2181 – 8096)

Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay'ati

D. Sayfullayev	<i>tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)</i>
D. Muxiddinova	<i>filologiya fanlari doktori (mas'ul kotib)</i>
A. Mannonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
R. Xodjayeve	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Sh. Shomusarov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Q. Omonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
U. Muxibova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Xamidov	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
B. Abdulhalimov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Xodjayev	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
M. Is'hoqov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Doniyorov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
X. Fayziyev	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
D. Xodjimuratova	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
Sh. Yovqochev	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
N. Abdullayev	<i>siyosiy fanlar doktori, dotsent</i>
A. Vahobov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Abdullayev	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
I. Mavlanov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Bahodirov	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
E. Izzetova	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
G. Glizon	<i>AQSHning New Mexico universiteti professori</i>
A. Shonazarova	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
Ono Masaki	<i>Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori</i>
Li Dji In	<i>Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori</i>
V. Mesamed	<i>Isroilning Quddus universiteti professori</i>
A. Gurer	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
A. Vorobyev	<i>Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi</i>
G. Avda	<i>Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori</i>
S. Kurayim	<i>Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
A. Tohir	<i>Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori</i>
H. Baydemir	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, L. Xamdamzoda, H. Sulaymonova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi
lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi
Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE

Ochilov O. Hu Shi til islohotlarining zamonaviy xitoy she'riyati shakllanishidagi ahamiyati	5
Yuldasheva X. Milliy identifikatsiya arab adabiy personaji timsolida.....	17
Sharaxmetova M. “Boburnoma”ning urducha tarjimasida milliy koloritning berilishi	23

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK //

ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ //

LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

Sodiqov Q. Qoraxoniylar davri asarlarida ishlatilgan tilshunoslik atamaları.....	34
Umarova M. Yakubova Sh. Tarjimashunoslikda “Milliy kolorit” tushunchasi masalalari	54
Jumaniyazov M. «Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» va «Al-Unmuzaj» asarining qiyosiy tadqiqi.....	64
Abdurahmonova M. Hindistonda fanlarni o'qitishda interfaol usullarni qo'llash tajribasi.....	83
G'iyosov B. Xitoy ta'lim muassasalari tomonidan tuzilgan ta'lim shiorlarining leksik-semantik tasnifi	90

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK //

ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ //

SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

Karimov A. Xitoyning amaliy san'ati Dzyandjining rivojlanish bosqichlari.....	105
Faromarzi F, Vohidova M. Mirzo Muhammad Rahimbek va uning “Esdaliklar” asari	116
Xubbaliyeva M. “Du Huanning borgan joylari xotirasi” sayohatnomasida Markaziy Osiyo.....	133

XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT //

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА //

INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

Ulug'ov N., Saidolimov S. Siyosiy nutq va uning jamoatchilikka ta'siri	146
Sadibaqoyev H. AQSHning Janubiy-Sharqiy Osiyodagi ittifoqchilari va ular bilan munosabatlarning strategik ahamiyati	156
Abdullayev J. Markaziy Osiyo davlatlari diplomatik munosabatlarining zamonaviy tarixi.....	170



Güngör Şahin, İsmail Polat. The Role of Energy Security in the Case of Kazakhstan – People’s Republic of China Relations.....	182
Normayeva M. Siyosiy ishtirok va ayollarning siyosiy faolligiga ta’sir etuvchi omillar (Turkiya Respublikasi misolida)	202
Medihanur Argali. Cultural Diplomacy: Fraternal Ties Between Uzbekistan and Azerbaijan	214
Bekdurdiyeva G. Xalqaro munosabatlarda “Yashil nazariya” asoslari va unga doir yondashuvlar	235
Gafarov I. Strategic approaches of Russia and China vis-a-vis Central and South Asia	249
Xodjayev L. Xalqaro munosabatlar sohasi mutaxassislarini kasbiy tayyorlashda xorijiy tilni o‘rgatishning xususiyatlari.....	262
Abdurasulov J. Xalqaro munosabatlarda geosiyosiy vaziyatlar hamda Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni ta’minlashning zamonaviy holati	276

FALSAFA // ФИЛОСОФИЯ // PHILOSOPHY

Mavrulova M. Sharq mutafakkir-allomalari shaxs madaniy-ma’naviy ehtiyojlarini shakllantirish to‘g‘risida.....	307
--	-----



- И. Николаев] ; Рос. акад. наук, Ин-т мировой лит. им. А. М. Горького. - Москва: Русские словари: Языки славянских культур, 2003. – С. 612.
2. Идрис Юсуф, Теймур Махмуд “Рассказы арабских писателей” Издательство иностранной литературы. М., 1955. – С. 35.
3. Edward W. Said The Question of Palestine. Vintage New York. 1992. C.122
4. غسان كنفانيظ رجال في الشمس. سنة النشر: 1963. 47 ص

SHARAXMETOVA MUXLISA

PhD, TDSHU

“BOBURNOMA”NING URDUCHA TARJIMASIDA MILLIY KOLORITNING BERILISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ulug‘ vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning (1483–1530) shoh asari «Boburnoma»ning urdu tiliga qilingan tarjimalari haqida ma’lumot keltirilgan. Ma’lumki, «Boburnoma» dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan, jumladan, urdu tiliga ham to‘rtta tarjimasi mavjud. Mazkur tarjimalar turli davrda turli tarjimonlar tomonidan bajarilgan.

«Boburnoma»ni urdu tiliga birinchi marta asliyatdan, ya’ni turkiy-chig‘atoydan Mirzo Nasiruddin Haydar Ko‘ragoniy tarjima qilgan. Ma’lumotlarga qaraganda, mazkur tarjima 1898-yilda amalga oshirilgan, biroq tarjimani muallifning hayotlik chog‘ida nashr etishning imkoni bo‘lmagan. Keyinchalik 1926-yilda Ko‘ragoniyning farzandlari asarni Dehlida chop ettirganlar. Qo‘limizdagi Ko‘ragoniyning tarjimasi 1962-yilda Karachi shahrida «Buk-Lend» nashriyotida qayta chop etilgan.

«Boburnoma» Rashid Axtar Nadaviy tomonidan ham tarjima qilingan. Mazkur tarjima dastlab 1965-yilda, keyinroq 1991-yilda Laho‘r (Pokiston) shahridagi «Sang-e-meel» nashriyotida chop etilgan va jami 287 betdan iborat. Kitobda tarjimon tomonidan yozilgan salkam to‘rt betli so‘zboshi va olti betli mundarija berilgan.

«Boburnoma»ning urdu tiliga yana bir tarjimasini forsiydan hindistonlik professor Yunus Ja’fariy amalga oshirdi va ushbu tarjima Angliyada chop etildi.

«Boburnoma»ning urdu tiliga yana bir tarjimasini Muhammad Qosim Siddiqiy amalga oshirgan. Bu tarjima dastlab 1983-yilda Dehlida «Taraqqi Urdu Bureau» nashriyotida chop etilgan. 2010-yili mazkur tarjimaning ikkinchi, to‘ldirilgan nashri ham Dehlidagi «Qaumi Counsil Bara-e-Farogh-e-Urdu Zaban» nashriyotida chop etilgan. Unga professor Muhammad Hamidulloh Bhat so‘zboshi yozgan.

Yunus Ja’fariy, Rashid Axtar Nadaviy va Muhammad Qosim Siddiqiy tarjimalari bilvosita, ya’ni forsiydan o‘g‘irilgan tarjima hisoblanadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari «Boburnoma»da geografik hududlar, adabiy portretlar, kishi ismlari, tabiat manzaralari, cholg‘u asboblari, kiyim-kechaklar, shuningdek, hayvonot va nabotot olamini tasvirlashda ko‘plab milliy xos so‘zlar – realiyalar uchraydi. Mazkur maqolada Mirzo Nasiruddin Haydar Ko‘ragoniyning urducha tarjimasida milliy kolorit, milliy



xos so'zlar tarjimalari, shuningdek, muallif uslubiga xos jihatlarning tarjimada berilishi qiyosiy tahlil qilinib xulosalar keltirilgan.

Kalit so'z va birikmalar: «Boburnoma», urducha tarjimalar, asliyat, izoh, realiya, qiyosiy tahlil, transliteratsiya, analogiya.

Abstract. This article provides information about the Urdu translations of the masterpiece «Baburnama» by our great compatriot Zahiruddin Muhammad Babur (1483-1530). «Baburnama» is known to have been translated into many languages around the world, including four Urdu translations. These translations were made by different translators at different times.

«Baburnama» was first translated into Urdu from the original, that is, from the Turkic-Chigatai language, by Mirza Nasiruddin Haydar Koragoni. According to information, this translation was made in 1898, but it was not possible to publish the translation during the author's lifetime. Later, in 1926, Koragoni's children published the work in Delhi. The translation of Koragoni that came into our hands was republished in 1962 by the Book Land publishing house in Karachi.

«Baburnama» was also translated by Rashid Akhtar Nadavi. This translation was first published in 1965 and then in 1991 by Sang-e-meel in Lahore, Pakistan and consists of 287 pages. The book has a four-page preface written by the translator and a six-page table of contents.

Another Urdu translation of «Baburnama» was made from Persian by Indian Professor Yunus Jafari and this translation was published in England.

Another Urdu translation of «Baburnama» was done by Muhammad Qasim Siddiqui. This translation was originally published in Delhi in 1983 by the Taraqqi Urdu Bureau. In 2010, the second, completed edition of this translation was published by Qaumi Council Bara-e-Farogh-e-Urdu Zaban in Delhi. Professor Muhammad Hamidullah Bhat wrote the foreword to it.

The translations by Yunus Jafari, Rashid Akhtar Nadavi and Muhammad Qasim Siddiqui are indirect translations from Persian.

In the masterpiece of Zahiruddin Muhammad Babur «Baburnama» there are many nationally specific words-realities in the description of geographical areas, literary portraits, names of people, natural landscapes, musical instruments, clothing, as well as the world of animals and plants. This article presents a comparative analysis of Mirza Nasiruddin Haydar Koragoni's translation of national color, national characteristic words, as well as the features of the author's style in translation.

Keywords and expressions: «Baburnama», translations into Urdu, original, explanation, reality, comparative analysis, transliteration, analogy.

Аннотация. В данной статье представлена информация о переводах на урду шедевра «Бабура-наме» нашего великого соотечественника Захируддина Мухаммада Бабура (1483-1530). Известно, что «Бабура-наме» переведена на многие языки мира, в том числе существует четыре перевода на урду. Эти переводы были сделаны разными переводчиками в разное время.

«Бабура-наме» впервые была переведена на урду с оригинала, то есть с тюркско-чигатайского языка, Мирза Насируддином Хайдаром Курагани. По сведениям, этот перевод был сделан в 1898 году, но опубликовать перевод при жизни автора не удалось. Позже, в 1926 году, дети Курагани опубликовали работу в Дели. Попавший в наши руки перевод Курагани был переиздан в 1962 году издательством «Бук-Лэнд» в Карачи.



«Бабур-наме» также перевел Рашид Ахтар Надави. Этот перевод был впервые опубликован в 1965 году, а затем в 1991 году издательством Sang-e-meel в Лахоре (Пакистан) и состоит из 287 страниц. Книга имеет четырехстраничное предисловие, написанное переводчиком, и шестистраничное оглавление.

Другой перевод «Бабур-наме» на урду был сделан с персидского языка индийским профессором Юнусом Джафари и этот перевод был опубликован в Англии.

Другой перевод «Бабур-наме» на язык урду был сделан Мухаммад Касимом Сиддики. Этот перевод был первоначально опубликован в Дели в 1983 году «Бюро Таракки Урду». В 2010 году второе, законченное издание этого перевода было опубликовано издательством «Qaumi Counsil Bara-e-Farogh-e-Urdu Zaban» в Дели. Профессор Мухаммад Хамидулла Бхат написал к нему предисловие.

Переводы Юнуса Джафари, Рашида Ахтара Надави и Мухаммад Касима Сиддики являются косвенными переводами с персидского языка.

В шедевре Захириддина Мухаммада Бабура «Бабур-наме» много национально-специфичных слов-реалий в описании географических местностей, литературных портретов, названий людей, природных ландшафтов, музыкальных инструментов, одежды, а также мира животных и растений. В данной статье представлен сравнительный анализ перевода Мирза Насируddина Хайдара Курагани национального колорита, национальных характерных слов, а также особенностей авторского стиля в переводе.

Ключевые слова: «Бабур-наме», переводы на урду, оригинал, объяснение, реалия, сравнительный анализ, транслитерация, аналогия.

Kirish «Boburnoma»ning ilmiy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati ham katta. «Boburnoma» qomusiy asar bo'lib, yuz yillar davomida turli xalq va elatlar tomonidan atroflicha, chuqur tadqiq etilishi, dunyoning turli tillariga tarjima qilinishi hamda qayta-qayta nashr etilishi jahon xalqlarining bu asarga qiziqishining tobora ortib borayotganligining sabablaridan biridir.

Dunyo tarjimashunosligida yozma manbalarning xorijiy tillarga qilingan tarjimalarini ilmiy jihatdan o'rganish bugungi kunda dolzarblik kasb etadi. Ularni leksik-semantik jihatdan o'rganish, realiyalarni tarjima asarlarida o'girish, ulardagi tushunilishi qiyin bo'lgan atamalarining ma'nosini izohlar berish orqali tushuntirish, tarjima asarni asliyatdan bevosita hamda bilvosita tarjima qilishning afzal va murakkab tomonlarini aniqlash kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ma'lumki, asliyat, o'z zamonasining adabiy tilida bo'ladi va har bir tarjima o'z davrining mahsulidir. Tarjima matni, uslubi esa bugungi kun holatini aks ettiradi. Tarjimashunoslar fikriga ko'ra, yuz yil oldin muayyan badiiy asarning o'zbek tiliga qilingan tarjimasi bilan uning keyingi davrlardagi tarjimalari bir-biri bilan qiyoslansa, bundan turli davrlarda yashagan tarjimonlarning asar muallifini tushunish darajasi, ularning mahorati o'rtasida ko'zga yaqqol tashlanadigan tafovutnigina emas, adabiy tilning turli davrlarda har xil kamolot darajasida bo'lganligini ham ko'rish mumkin.



Maqsad va vazifa: «Boburnoma»ning Mirzo Nasiruddin Haydar Ko‘ragoni tomonidan urdu tiliga qilingan tarjimasida milliy kolorit, tarixiy shaxslar adabiy portreti, mamlakatlar ta’rifi, hayvonot va nabotot bilan bog‘liq milliy xoslangan so‘zlarni tarjima qilishda qo‘llangan usullarni aniqlash, shuningdek, muallif uslubiga xos jihatlarning tarjimada berilishini qiyosiy tahlil qilish.

Usullar. Maqolani yoritishda tavsiflash, qiyoslash va chog‘ishtirish kabi tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar va mulohaza. «Boburnoma» urdu tiliga to‘rt marta o‘girilgan. Mazkur tarjimalar turli davrda turli tarjimonlar tomonidan bajarilgan. «Boburnoma»ni urdu tiliga birinchi marta asliyatdan, ya’ni turkiydan Mirzo Nasiruddin Haydar Ko‘ragoni tarjima qilgan¹. Ma’lumotlarga qaraganda, mazkur tarjima 1898-yilda amalga oshirilgan, biroq tarjimani muallifning hayotlik chog‘ida nashr etishning imkoni bo‘lmagan. Keyinchalik 1926-yilda Ko‘ragoniyaning farzandlari asarni Dehlida chop ettirganlar. Qo‘limizdagi Ko‘ragoniyaning tarjimasini 1962-yilda Karachi shahrida «Buk-Lend» nashriyotida qayta chop etilgan. Sarvaraqda kitobning nomi بابرنامہ [Ba:barna:ma], uning tagida تزک بابری [Tuzuke Ba:bari:] deb keltirilgan. Mundarija بابر اور بابرنامہ [Ba:bar aor Ba:barna:ma] (Bobur va Boburnoma) sarlavhali so‘zboshi bo‘lib, kitob jami 426 sahifadan iborat. Ubaydulla Quddusiy izohlarni tahrir qilgan, to‘ldirgan va so‘zboshi yozgan. «So‘zboshi» muallifi Ubaydulla Quddusiy tarjimaga juda yuqori baho beradi. «ترجمہ نہایت صاف شدہ اور صحیح ہے ...». «کوئی چھوڑنے نہیں پایا qolmagan...»). Tarjimada ko‘plab izohlar bor: tarjimon ba’zi so‘zlar, atamalarni Leyden-Erskin tarjimasini bilan solishtiradi. Masalan, «Sangzor» degan joy nomi haqida mana bunday izoh berilgan: «Jon Leyden» matnda «Sangzor» deb yozadida, bu so‘z «Sangroz» va «Sangzor» shakllarida bir necha marta uchraydi, deb izoh beradi. Ikkovidan qaysi biri to‘g‘riligini aytish qiyin. Forscha tarjimalarda «Sangzor» yozilgan. Ma’nosiga ko‘ra ham (ya’ni «toshloq») shu so‘z to‘g‘riga o‘xshaydi. Keltirilgan misoldan ko‘rinib turibdiki, urdu tili tarjimoni imlo masalasiga jiddiy yondashgan.

«Boburnoma» Rashid Axtar Nadaviy² tomonidan ham tarjima qilingan. U 1918-yil 13-yanvarda Hindistonning Dehli shahrida tavallud topgan. Adabiyotshunos olim, nosir. Ma’lumotlarga qaraganda, adib tarjimonlik faoliyatidan tashqari, «G‘arbiy Pokiston tarixi», «Shimoliy Pokiston», «Humoyunnoma», «Avrangzeb» kabi ko‘plab kitoblarni yozgan. Mazkur tarjima dastlab 1965-yilda, keyinroq 1991-yilda Laho‘r (Pokiston) shahridagi «Sang-e-

تزک بابری، مرزا نصیر الدین حیدر، بک لینڈ کراچی، ۱۹۶۲^۱

تزک بابری، رشید اختر ندوی، لاہور ۱۹۹۳^۲



meel» nashriyotida chop etilgan. «Boburnoma»ning ushbu nashri تۇزۇك بابرى [Tuzuke Ba:bari:] deb nomlangan, jami 287 betdan iborat. Kitobda tarjimon tomonidan yozilgan salkam to'rt betlik so'zboshi va olti betlik mundarija berilgan.

«Boburnoma»ning urdu tiliga yana bir tarjimasini forsiydan hindistonlik professor Yunus Ja'fariy amalga oshirdi¹ va ushbu tarjima Angliyada chop etildi. Sayyid Muhammad Yunus Ja'fariy 1930-yil 27-sentabrda Hindistonning Dehli shahrida tavallud topgan. U hindiy, urdu, fors, ingliz tillarida ijod qilgan, ko'plab xalqaro mukofotlar sohibi bo'lgan, shuningdek, tarjimonlik sohasida faoliyat olib borgan mohir tarjimon hamdir. Uning forsiydan ingliz tiliga, urdudan forsiyga va aksincha qilgan tarjima asarlari diqqatga sazovordir.

«Boburnoma»ning urdu tiliga yana bir tarjimasini Muhammad Qosim Siddiqiy amalga oshirgan. Bu tarjima dastlab 1983-yilda Dehlida «Taraqqi Urdu Bureau»² nashriyotida chop etilgan. Sarvaraqda kitobning nomi بابرنامہ [Ba:barna:ma] deb, uning tagida esa تۇزۇك بابرى [Tuzuke Ba:bari:] tarzida keltirilgan va u kitob jami 66 sahifadan iborat. So'zboshi muallifi professor Fahmida Begum. 2010-yili mazkur tarjimaning ikkinchi, to'ldirilgan nashri ham Dehlidagi «Qaumi Counsil Bara-e-Farogh-e-Urdu Zaban» nashriyotida chop etilgan. Unga professor Muhammad Hamidulloh Bhat so'zboshi yozgan.

Badiiy asardagi voqealar muayyan makonda, muayyan zamonda, muayyan qahramonlar ishtirokida kechadi va biror xalqqa tegishli sanaladi. Tabiiyki, xalq yashaydigan makonning o'ziga xos tabiati, iqlimi, ko'rinishi, bu xalqqa mansub kishilarning qiyofasi, xarakteri va mentaliteti ham bo'ladi.

Tarjimashunos olimlarning fikricha, milliy kolorit badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlar yig'indisidir. Yoki «Milliy kolorit – badiiy asarda aks etgan u yoki bu xalqqa xos xususiyatlar majmuyi deb, ikkiga ajratib qarash mumkin. Moddiy hayot unsurlari va ma'naviy faoliyat shakllaridan iborat bo'ladi. Ma'naviy faoliyat kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, intilishlari, qiliqlari, yumor xususiyatlari va boshqalarni o'z ichiga olsa, moddiy hayot urf-odat, rasm-rusum, marosimlar, kiyimlar, uy-ro'zg'or jihozlari, pazandachilik, cholg'u asboblari, ismlar va hokazolardan iborat». O.S.Axmanovning «Lingvistik terminlar lug'ati»da kolorit badiiy asarning o'ziga xos xususiyati, personajlarning nutq xarakteristikasi sifatida ta'riflanib, ularning nutqida biron davr tilidan yoki shevalardan olib o'zlashtirilgan tilning o'ziga xos belgilari, biron mamlakat yoki joyning xos tushunchalari (realiya) majmuyidan iborat, deb ko'rsatiladi. Jumladan, Sharq koloriti, Yevropa koloriti va mahalliy koloritga doir so'z va istilohlar misol tariqasida keltiriladi». M.Soipova mahalliy koloritni

1 وقائع بابری، یونس جعفری شہر بانو پیلی شیرز کر یکادی ۲۰۰۷

2 ابرنامہ (تُرک بابری) محمد قاسم صدیقی، ترقی اردو بیورو، نئی دہلی ۱۹۸۳



quyidagicha izohlaydi: mahalliy kolorit – biror mahalliy sharoit, urf-odat yoki joyga xos turmush, peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda aks ettirishdir. Professor G'.Salomovning fikriga ko'ra, «adabiy asarning umumiy xususiyatlari xalqning xususiy va ijtimoiy hayot tarzida, turmush sharoitida, kiyimida, urf-odatlarida, ko'cha, shahar, san'at yodgorliklari, muassasalarning nomi, mansabdor shaxslarning familiyalari va boshqalarda namoyon bo'ladi. Bularning yig'indisi asarning milliy xususiyatini tashkil etib, barchasi asliyatda nutq vositalari orqali bayon etilgan bo'ladi. Ularning to'g'ri tarjimasi juda muhimdir».

Tilning milliy xususiyatlarini anglatadigan birliklarga to'xtalganda realiya masalasiga ham munosabat bildirish kerak bo'ladi. «Realiya (lot.: narsaga, buyumga oid). Muayyan millatga xos so'z va tushunchalar (milliy xos so'zlar). Realialar xalqning milliy xususiyatini ifodalab, badiiy asarda milliy koloritni yuzaga chiqaradi». Realialar asar tilining ajralmas qismi bo'lib, ular yordamida muallif qahramon obrazini yaratadi. Xalqning milliy xususiyatini tasvirlab beradi. Ular badiiy asarning milliy koloritini ifoda etadi. Turli uslubiy vazifalarni bajaradi, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy, to'g'ri tasvirlashga yordam beradi». «Realialarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, me'morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o'simliklarning nomlari, daraja, tabaqa va boshqa bo'linishlarni ifodalovchi so'zlar, muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so'z va iboralar kiradi».

S.Vlaxov va S.Florinlarning yozishicha, «realiya bu – borliqdagi ashyoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa muayyan mamlakatning davlat qurilishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi so'zlar, muayyan tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik birlik»dir. Bir so'z bilan aytganda, realiya muayyan millat til tafakkuriga tom ma'noda xos so'z bo'lib, ularni tarjima qilish mumkin emas»¹.

Tarjimashunoslikda milliy xoslangan so'zlarni tarjima qilishda uch usul qo'llaniladi:

1. **Transliteratsiya** – bir yozuv sistemasidagi matnni boshqa yozuv sistemasiga o'tkazish. Tarjimada joy va kishi nomlari, turli atamalar va milliy xoslangan so'zlarni boshqa til belgilari tomonidan aynan ifodalash. Transliteratsiyadan keyin ko'pincha matn ostida izoh beriladi.

2. **Analogiya** – o'xshashlik, bir-biriga yoki boshqasiga o'xshashlik, ya'ni muqobil tushuncha bilan berish. Q.A'zamovning fikricha, analogiya usuli «yaqin tarjima deb ham ataladi», lekin bu termin nomining o'ziyoq asl nusxadagi milliy

¹ Влахов С. ва Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 1980. – С. 34.



xoslangan soʻzlarning barcha vazifalarini, maʼno qirralarini toʻliq ifoda etmasligini koʻrsatib turibdi. “Oʻxshash – oʻxshash-da, aynan oʻzi emas!”

3. Yangi soʻz va soʻz birikmasi yaratish. Baʼzi tarjimonlar milliy xoslangan soʻz va iboralarni, nom va tushunchalarni tarjima qilib oladilarki, bu hol koʻpincha oʻzini oqlamaydi. Masalan: «pirog»ni «somsa», «kosa»ni «glubokaya tarelka» tarzida¹.

Quyida Mirzo Nasiruddin Haydar Koʻragoniyning urducha tarjimasida berilgan milliy-madaniy soʻzlarning tahlilini keltiramiz:

Mirzo Bobur «Boburnoma»da mevalarning xilma-xil turlarini tasvirlashi, tabiat manzaralarini tavsiflab tushuntirishi, koʻplab realiyalar qoʻllangani tufayli milliy kolorit saqlanganini koʻrsatadi. «Boburnoma»ning tarjimasida geografik hududlar, adabiy portretlar, kishi ismlari, tabiat manzaralari, cholgʻu asboblari, shuningdek, hayvonot va nabotot olamini tasvirlashda koʻplab milliy-madaniy xos soʻzlar – realiyalar uchraydi.

«Boburnoma»da 1500 dan ortiq tarixiy shaxslar tilga olingan. Bular hukmdorlar, bek va vazirlar, din peshvolari, harbiy amaldorlar, musiqachi va musavvirlar, shoir va yozuvchilar obrazlaridir. «Boburnoma»da muallif ularning adabiy portretini katta mahorat bilan chizganiga guvoh boʻlish mumkin. Mirzo Nasiruddin Haydar Koʻragoniy tarjimasida muallif tilga olgan shaxslardan Boburning otasi Umarshayx mirzoning adabiy portreti taʼrifida kiyim-kechakka oid xoslangan soʻzlarning tarjimada berilishiga misol keltirsak: «*Toʻnni bisyor tor kiyar edi*». Mazkur jumlaning urducha talqini quyidagicha: *کپڑے بہت چست پہنا کرتے تھے۔*

Ushbu jumlada toʻn soʻzi *کپڑا* [kapRa:], yaʼni kiyim deb tarjima qilingan. Toʻn oʻzbek milliy libosi hisoblanib, urdu tiliga nisbatan milliy xoslangan soʻz sanaladi. *کپڑا* urdu tilida umuman kiyimni anglatadi, undan tashqari mato maʼnosida ham qoʻllanadi. Shuning uchun bu oʻrinda «chopon», «toʻn» maʼnosini beradigan *چوڑھا* [chu:gʻa:]ni qoʻllash mumkin edi. Tarjimon ushbu realiyaning tarjimasini aniq bera olmagan, hech boʻlmaganda, sahifa ostida havola keltirishi lozim edi.

Transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi asliyatda qoʻllanilgan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud boʻlmaganligi tufayli asliyatning milliy xususiyatini tarjima tili sohiblariga xos xususiyat bilan almashtirib qoʻyish yoki tarjimani umuman bunday xususiyatdan mahrum etish kabi holatlarga yoʻl qoʻymaslikdan iboratdir. Transliteratsiya xos soʻzlarni tarjimada talqin etishning eng samarali usullaridan boʻlib, uning yordamida asliyatning milliy xususiyati siliq holda talqin etiladi.

¹ Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент: ТДШИ, 2014. – Б. 92.



«Boburnoma»da keltirilgan adabiy portretlarning urducha talqinida kishi ismlari, taxallus, laqablarni anglatgan realiyalarning urdu tilida berilishini qiyosiy tahlil qilib ko'rsak: Umarshayx mirzo adabiy portretida: «*Sulton Abusa'id Mirzo avval Kobulni Umarshayx Mirzog'a berib, Boboyi Kobuliyni bek atka qilib, ruxsat berib edi*»¹ jumlasining tarjimasi esa quyidagicha: کو مرزا شیخ عمر اول نے رزا سعید ابو سلطان - Jumalarning qiyosiy tarjimasidan ko'rinadiki, tarjima to'g'ri amalga oshirilgan deyish mumkin, biroq Boboyi Kobuliy ismi urduda بابا کابل [Ba:ba: Ka:bul] «Bobo Kobul» shaklida xato berilgan.

Husayn Boyqaro adabiy portreti ta'rifida muallif quyidagilarni yozadi: «*Badakabegim ham Mirzoning egachisi edi. Qazoqliqlarida Ahmadxon Hoji Tarxoniyg'a berib edi, ikki o'g'li bo'lub edi*».

Badakabegim ismi تھی دی کر سے شیرخان بن خان احمد شادی کی اس تھی بہن چھوٹی کی مرزا جو بیگم بیرکم بن خان احمد [Birkam begam]ga aylanib ketgan, Ahmadxon Hoji Tarxoniy esa احمد شیرخا [Ahmad Xa:n bin Sherxa:n] deb o'girilgan. Mazkur o'rinlarda taxallus va kishi ismlarini asliyatdagidek, transliteratsiya usuli bilan berilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bek va vazirlar badiiy tasviri tarjimasida muallif Muhammad Majdiddin haqida quyidagilarni yozadi. «*Ul fursatta Majdiddin Muhammad parvonachi edi, Mirak derlar edi*». Urducho talqini quyidagicha: کہا میرک کو - اس تھا پروانچی وقت مجد الدین اس Tarjimon ushbu gapda laqab va lavozimni o'girishda transliteratsiya usuliga murojaat qilib, adekvat tarjimaga erishgan پروانچی [parva:nchi:] میرک [Merak]. Milliy xoslangan so'zlarning aksariyat hollarda transliteratsiya usuli orqali tarjimada berilishi xususida H.Hamroyev quyidagilarni yozadi: «Muayyan xalq turmushiga xos tushunchalarni anglatadigan ko'pchilik xos so'zlarning ma'nolari va o'taydigan vazifalari mamlakatlarning o'zaro madaniy, ma'rifiy, iqtisodiy, siyosiy aloqalari natijasida qator xalqlar vakillariga, shu jumladan, tarjima tili sohiblariga ham tanish bo'lib qoladiki, tarjimonlar bunday so'zlarga o'z tillarida muqobil lisoniy vositalar qidirib yurmasdan, ularni transliteratsiya yo'li bilan talqin etaveradilar». Buni Sulton Husayn Boyqaro Mirzoning quyidagi ta'rfi tarjimasida ko'rish mumkin:

«*Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi «Husayniy» edi*». Mazkur jumlada tarjimon Husayn Boyqaro taxallusini urdu tilida تھا تخلص حسین [Huseyni deb transliteratsiya yo'li bilan bergan va adekvat tarjimaga erishgan.:]

¹ Бобурнома. П. Шамсиев, С. Мирзаев ва Эйжи Мано (Япония) нашрлари асосида қайта нашрга тайёрловчи: С. Ҳасанов. – Тошкент: “Шарқ”, 2002.



Tarjimada geografik joy nomlarini anglatuvchi realiyalarga oid misollarning tahlili quyidagicha: Bobur Kobul ta'rifida Kobulga karvonlar qaysi shaharlardan kirib kelishini zikr etadi: «Hinduston bilan Xuroson orasida xushki yo'ldin ikki bandardur. Bir Kobul, yana bir Qandahor. Koshg'ar va Farg'ona va Turkiston va Samarqand va Buxoro va Balx va Hisor va Badaxshondin korvon Kobulg'a kelurlar». ہیں قافلے آتے ہیں کابل سے بدخشان اور - حصار بلخ - بخارا - ترکستان، سمرقند - ہار - فرغانہ قند دوسرا کاب ایک۔
Mazkur jumlar qiyosidan shuni anglash mumkinki, shaharlar nomi transliteratsiya usuli bilan asliyatdagidek keltirilgan, biroq muallif shaharlarni va bog'lovchisi yordamida sanab o'tgan, tarjimada esa tinish belgilari orqali berilgan. Shu jumla davomidagi «Bu tog'ning ibtidosi Devarin tangisidindur» jumlasini tarjimada quyidagicha berilgan: «Devarin» ہے۔ ہوتی شروع سے انوارین تنگی پہاڑی یہ۔
joy nomini bildiruvchi realiya tarjimada o'zgarib [Anva:ri:n] bo'lib ketgan. Ushbu o'rinda tog' oralig'idagi joy nomi, bizningcha, transliteratsiya usuli bilan ifodalansa o'rinli bo'lardi.

Umarshayx Mirzo adabiy portreti ta'rifida Axsi shahar nomi اخشی [Akhshi:] shaklida xato keltirilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy va Sulton Husayn Boyqaro adabiy portretlarida muallif Hirotni «Hiri» shaklida qo'llagan, fikrimizcha, «Hiri»ni Hirot tarzida emas, asl shaklida qoldirish maqsadga muvofiq bo'lardi, Hiriga esa sahifa ostida izoh berish ma'qul edi.

Bilmon, ne jarima bila Sulton گيا سمرقند اور مرزا سید ابو خراج سے ہرت میں گناہ کس نہیں معلوم
 Abusa'id Mirzo Hiri'din ixroj qildi.

Hindiston hayvonot olamining «Fil» tasvirida muallif fillar ko'p uchraydigan hududni qayd etadi: «Kurara va Manikpurdin o'ttuz- Hindistonga oid joy nomini bildiruvchi realiyalarni o'girishda xatolikka yo'l qo'yilgan. Mazkur hollarda ham transliteratsiya usuliga murojaat qilinsa ma'qul bo'lardi.

Asliyatda Mirzo Bobur sozanda va bastakorlar ta'rifida ular chalgan cholg'u asboblari haqida so'z yuritib shunday yozadi: «Yana Shayxiy Noiy edi, udni va g'ijjakni ham xo'b cholur ekandur. O'n ikki o'n uch yoshidin beri nayni xo'b cholur ekandur». Urdu tilidagi talqini: یک - عود تھا نائی شیخیم اور - عود تھا خوب غشیراک
 Mazkur jumlada ud va g'ijjak kabi cholg'u asboblari tilga olingan. Ushbu so'zlar urdu tiliga nisbatan realiya hisoblanadi. Tarjimada ud ning deb berilishi to'g'ri, ammo g'ijjak غشیراک [g'ashira:k] deb noto'g'ri berilgan. Bizningcha, g'ijjak so'zini asliyatdagidek غج deb berib, sahifa ostida izoh berilishi to'g'ri edi. Fikrimizcha, bu o'rinda tarjimon cholg'u asbobi nomini yangi so'z yaratish usuli orqali o'g'irgan. Binoiy badiiy tasvirida tarjimon savt va naqsh birikmasidagi «savt»ni صورت [su:rat] shaklida yozgan: «Bu to'qquz rangning



tuganishi va naqshning yallosi «Rost»tadur». Rost maqom termini bo'lib, urdu tiliga tiliga nisbatan milliy xoslangan so'zdir. Tarjimada ayni so'z tushirib qoldirilgan. Tarjimada ...mutaqorib bahri birikmasida bahr nomi تقارب [taqa:rib] deb xato yozilgan. Tarjimashunoslarning fikricha, milliy xoslangan so'zlar tarjimasida eng qiyini u yoki bu tushuncha, narsa-hodisa haqida o'quvchi ongida tasavvur hosil qilishdir. Zahiriddin Muhammad Bobur o'z asarida shahar va qishloqlar tasviri, geografik hududlar, peyzaj chizgilari, voqea-hodisalar tafsiloti va jang-u-jadallarni shunchaki bayon qilmaydi, ularni tasvir vositalari orqali ifodalaydi.

Qush, hayvon va o'simlik nomlarini anglatuvchi realiyalarning tarjimasi xususida shuni aytish kerakki, Zahiriddin Muhammad Bobur borgan yerlarida o'simlik va gullarni tabiatshunoslarga xos nazar bilan o'rganib, qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Shu jihatdan Hindiston nabotot olami tasviridan misol keltirsak: «*Ba'zi hindustoni «gadhal» deydu*». Urducho talqini: هندوستانی بعض کو اس

Ushbu jumlada asliyatda tilga olingan gul nomi «gadhal» کرل [kareyl] deb berilgan. Muallif tilshunos sifatida Hindistonga xos bo'lgan bu gul nomini hind xalqi qanday talaffuz qilishiga e'tibor qaratgan. Shu bois tarjimada gul nomi asliyatdagidek «gadhal» kabi berilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Xulosa. «Boburnoma»ning yaratilganidan beri turli xalqlar tomonidan qiziqib o'rganilishi, tarjima qilinishi va qayta-qayta nashr etilishi, unga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlarning tashkil etilishi Sharq-u G'arbda, jumladan, Pokistonda mazkur asarni o'rganishga bo'lgan qiziqishning birdek ortib borayotganligi ayni shoh asarning jahon miqyosida tan olinganligini ko'rsatadi.

«Boburnoma» urdu tiliga to'rt marta o'girilgan bo'lib, ular turli davrlarda turli tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan. Mirzo Nasiruddin Haydar Ko'ragoni tarjimasi asliyatdan, ya'ni turkiydan amalga oshirilgan bevosita tarjimadir. Yunus Ja'fariy, Rashid Axtar Nadaviy, Muhammad Qosim Siddiqiy tarjimalari forsiydan o'girilgan bilvosita tarjimalardir.

«Boburnoma»da realiyalarning ko'plab qo'llanilganligi asarda milliy koloritning yuqori darajada aks etganligini ko'rsatadi. Bu jihatdan realiyalar matnning pragmatik xususiyatlarini yanada yorqin ochib berilishiga xizmat qiladi. Ular voqealarni real tasvirlashda, shu xalqqa xos rasm-rusum, urf-odatlarini aks ettirishda namoyon bo'ladi. Milliy xoslangan so'zlarning tarjimada berilishiga oid misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, tarjimon realiyalarni o'g'irishda, asosan, transliteratsiya va muqobil tushunchalarni berish usullaridan foydalangani ma'lum bo'ldi. Ayrim hollarda joy nomlari, kiyim-kechak va maqom nomlari, cholg'u asboblarni bildiruvchi realiyalar tarjimasida nomuvofiqliklar ham kuzatildi.

تزک بابری، مرزا نصیر الدین حیدر کراچی، ۱۹۶۲^۱



Mirzo Nasiruddin Haydar Ko‘ragoniy tarjimasi, asliyatdan o‘girilganligi, urdu tilidagi ilk to‘liq tarjima ekanligi va boburiylar avlodi vakili tomonidan o‘girilganligi bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ۱۹۶۲، تزک بابری، مرزا نصیر الدین حیدر کراچی، (426 p.)
2. ۱۹۸۳، (66 p.) بابرنامہ (تزک بابری) محمد قاسم صدیقی، ترقی اردو بیورو، نئی دہلی
3. ۱۹۹۳، تزک بابری، رشید اختر ندوی لاہور (287 p.)
4. ۲۰۰۴، وقائع بابر، یونس جعفری شہر بانو پبلی شیرز کر یکادی (396 p.)
5. Влахов С. ва Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 1980.
6. Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент: ТДШИ, 2014.
7. Бобурнома. П. Шамсиев, С. Мирзаев ва Эйжи Мано (Япония) нашрлари асосида қайта нашрга тайёрловчи: С. Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ, 2002.